
“PIYOZCHILIK” MFYDA “OBOD XONADON – OBOD KO‘CHA – OBOD MAHALLA” MEZONLARINI JORIY ETISH MAQSADIDA MAHALLADA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR AMALGA OSHIRILMOQDA.

Ayni damda “Piyozchilik” mahallasida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari asosida keng ko‘lamdagi obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlar olib borilmoqda.

Mazkur mahallada “Yo‘l xaritasi”da belgilangan mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, hududidagi ijtimoiy soha ob‘yektlari holatini o‘rganish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarning bandligini ta‘minlash va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, oilalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni mustahkamlash kabi sohalarda amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugun tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman prokurori Shuxratjon Musayev hamda hokim o‘rinbosarlari mahalladagi ehtiyojmand oilalar xonadonida bo‘lishdi. Shuningdek, yakka yolg‘iz yashovchi Shoiraxon aya Parpiyevani xonadonida olib borilayotgan obodonlashtirish ishlarini ko‘zdan kechirdilar. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi ishchi-xodimlari tomonidan yo‘l chetlarini, ariqlarni tozalash ishlari ham olib borildi.

2024-01-13 14:31:55